



BIZ ZO'RAVONLIKKA QARSHIMIZ.

Otajonov Voxidjon Topiljon O'g'li

Qo'qon universiteti psixologiya
yo'nalishi 2-kurs talabasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagи PF-81-sonli Farmoni bilan Oila, xotin-qizlar va keksa avlod vakillari bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, mahallalarni qo'llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va o'zaro hamkorligini ta'minlash maqsadida quyidagilar xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish; hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish, turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni «Ayollar daftari» orqali manzilli qo'llab-quvvatlash, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib belgilab berildi.

Xush bunda, alohida etibor qaratadigan mavzumiz, zo'ravonlikka qarshi kurashish masalasiga to'xtalsak, davlatimiz toboro zamon bilan hamnafas bo'lishi va jamiyatimizda turli xil eskicha qarashlarning saqlanib qolishi ortidan ayollarga har xil bo'ladigan tazyiqlar va zo'ravonliklar ko'paya borayotganligini takidlab o'tishimiz lozimdir.

Zo'ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)dir.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Bunda asosiy e`tibor qaratiladigan holat ishdagi xotin-qizlarga zo‘rovonlik holatlari yuz berishi bilan bog‘liq nizolar yuzasidan kelib chiqadigan mehnat shartnomasini bekor qilish bilan bog‘liq sudlarda ko‘riladigan ishlar ko‘paya borayotganligidir.

Shu bois, ushbu holatlar yuzasidan xotin-qizlar bo‘limlari sudlarda mazkur toifadagi ishlar yuzasidan endilikda manfaatdor shaxs sifatida qatnashish va shu bilan bir qatorda nizolarni sudga qadar oldini olishga mas’ulliklarini alohida e`tirof etmog‘imiz lozimdir.

Ammo bugungi kunda jamiyatimizda uchrab turayotgan bir noxush holat borki uni bartaraf etishda barchamiz birlashishimiz lozim. Bu ham bo‘lsa xotin-qizlarning zo‘ravonlik va tazyiqqa uchrashishini oldini olish, aytish lozim bo‘lsa bunday xolatlarga umuman yo‘l qo‘ymaslikdir.

Davlatimiz rahbarining shaxsiy tashabbuslari bilan so‘ngi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy xujjatlar qabul qilindi.

Shulardan eng asosiysi sifatida mamlakatimizda gender tengligini ta’minalash maqsadida 2019 yil 2 sentyabr kuni “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinganligini aytib o‘tishimiz mumkin.

Ichki ishlar organlarida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektor lavozimlarining joriy etilganligi esa ojiz jins vakilasi hisoblanmish xotin-qizlarni zo‘ravonlik va tazyiqdan himoya qilish maqsadida tashlangan eng dadil qadamlardan biridir.

Bugun ayollarimiz o‘rtasida urf bo‘layotgan salbiy holatlardan yana birisi bu oilaturnush doirasidagi muammo va kelishmovchiliklarni o‘zboshimchalik bilan hal etishga urinishlaridir.

Aziz yurtdoshlar, To‘maris, Nodirabegim, Uvaysiyalar avlodi bo‘lgan opa-singillarimiz tomonidan sodir etilayotgan bu kabi jirkanch illatlar nafaqat millatimiz sha’ni uchun, shu bilan birgalikda qonunlarimizga ham mutlaqo ziddir.

Ilgari sudlangan, ozodlikdan maxrum qilish jazosini o‘tagan degan iboralarni jamiyatimiz a’zosi bo‘lgan xotin-qizlarning shaxsiga nisbatan ishlatalishiga yo‘l qo‘ymaylik. Buning uchun ayollarimizdan sabr-qanoat, vafo va sadoqat, erkaklarimizdan esa mehr-muruvvatli bo‘lish talab etiladi xolos.

